

**O‘zbekiston Respublikasining 2004-yil 26-avgustdagi “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”
662-II-son Qonunining 16-moddasi “*Fermer xo‘jaligining huquqlari*”ni tartibga solish
ta’sirini baholash bo‘yicha**

MA’LUMOTLAR

I. TARTIBGA SOLISH USULINING TA’SIR DOIRASI

O‘zbekiston Respublikasining 2004-yil 26-avgustdagi “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida” 662-II-son Qonunining 16-moddasi “*Fermer xo‘jaligining huquqlari*” normasi bevosita ushbu Qonunning 3-moddasida belgilangan fermer xo‘jaligiga – ya’ni ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtiruvchi va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyektiga taaluqlidir. Shuningdek, norma ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarini ham qamrab oladi.

Bilvosita subyektlar doirasiga fermer xo‘jaligini boshlig‘i, fermer xo‘jaligi xodimlari, shuningdek fermer xo‘jaligi bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishuvchi uchinchi shaxslar (mahsulot ist’emolchilari, kredit muassasalari, yer uchastkasini ikkilamchi ijaraga oluvchilar va boshqalar) kiradi.

Modda, bir tomondan, fermer xo‘jaligining davlat organlari va boshqa shaxslar tomonidan asossiz aralashuvdan himoyalanganligini ta’minlasa, ikkinchi tomondan, unga iqtisodiy faoliyatni erkin va mustaqil ravishda amalga oshirish uchun qonuniy asos yaratadi, shu tariqa qishloq xo‘jaligi sohasida tadbirkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, ushbu modda faqat bir turdagi emas, balki fermer xo‘jaligi faoliyatining deyarli barcha jabhalarini qamrab oluvchi kompleks huquqiy norma hisoblanadi.

II. TARTIBGA SOLISH USULINING NATIJADORLIGI VA SAMARADORLIGI

I. O‘zbekiston fermerlari kengashi va uning hududiy va tuman kengashlari tomonidan 2020-2025-yillar davomida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida yillar kesimida batafsil ma’lumot.

O‘zbekiston fermerlari kengashi va uning hududiy va tuman kengashlari tomonidan 2020-2025-yillar davrida fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari huquqlari va qonuniy manfaatlarini, shu jumladan davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, tayyorlov, ta’minot va xizmat ko‘rsatish tashkilotlari bilan munosabatlarda, nazorat qiluvchi organlar tomonidan tekshirishlar o‘tkazish jarayonida hamda sudlarda ishlarni ko‘rib chiqishda himoya qilish borasida bir qator ishlar amalga oshirilgan.

Jumladan, 2020-2025-yillar davomida O‘zbekiston fermerlar kengashining bevosita yordami bilan fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari manfaatini himoya qilish uchun quyidagi ishlar amalga oshirilgan:

1. 2020-yilda fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari manfaatini himoya qilish uchun sudlarga qariyb 4857ta da’vo arizalari kiritilgan.

O‘zbekiston fermerlari kengashi huquqshunoslarining bevosita amaliy yordami bilan 4857 ta fermer xo‘jaliklarining tayyorlov, mahsulot yetkazib beruvchi va xizmat ko‘rsatish tashkilotlaridan haqlarini undirib berish bo‘yicha 577929 mln. so‘mlik sudlarga da’vo arizalari kiritilgan. Shundan 3868 tasi qanoatlantirilib 340931 mln.so‘mini undirish bo‘yicha sudlarning qarorlari qabul qilindi, 3065 ta ijro varaqa orqali 316533 mln. so‘m mablag‘ fermer xo‘jaliklariga undirib berilgan.

Shuningdek, 10873 ta fermer xo‘jaliklarining haqlarini undirib berish bo‘yicha qarzidor tashkilot va korxonalarga 719.064 mln.so‘mlik talabnomalar kiritilgan, shundan 6736 tasi qanoatlantirilib 153089 mln.so‘mi fermer xo‘jaliklari hisobiga ixtiyoriy tarzda undirib berilgan.

Fermer xo‘jaliklarining 4731 ta boshqa masalalardagi murojaatlari hal etilgan.

Boshqa masalalarda ularning 4731 ta murojaati bo'yicha 122188 mln.so'm undirib berilgan.

2. 2021-yilda fermer xo'jaliklarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida, mazkur yo'nalishda kengash huquqshunoslarining bevosita amaliy yordami bilan fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari manfaatini himoya qilish uchun sudlarga qariyb 7164 ta da'vo arizalari kiritilgan.

Fermerlar kengashi huquqshunoslarining bevosita amaliy yordami bilan 7164 ta fermer xo'jaliklarining tayyorlov, mahsulot yetkazib beruvchi va xizmat ko'rsatish tashkilotlaridan haqlarini undirib berish bo'yicha 450955 mln. so'mlik sudlarga da'vo arizalari kiritilgan. Shundan 5542 tasi qanoatlantirilib 338582 mln.so'mini undirish bo'yicha sudlarning qarorlari qabul qilingan, 3675 ta ijro varaqa orqali 237926 mln. so'm mablag' fermer xo'jaliklariga undirib berilgan.

Shuningdek, 14880 ta fermer xo'jaliklarining haqlarini undirib berish bo'yicha qarzdor tashkilot va korxonalarga 520689 mln. so'mlik talabnomalar kiritilgan, shundan 8941 tasi qanoatlantirilib 228241 mln.so'mi fermer xo'jaliklari hisobiga ixtiyoriy tarzda undirib berilgan.(2020-yilda qarzdor tashkilotlarga 10 873 ta talabnomalar kiritilgan, fermer xo'jaliklari hisobiga 153,1 mlrd so'm mablag' undirib berilgan). Fermer xo'jaliklarining 3990 ta boshqa masalalardagi murojaatlari hal etilgan.

3. 2022-yilda fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari manfaatini himoya qilish uchun sudlarga qariyb 6642 ta da'vo arizalari kiritilgan.

Fermerlar kengashi huquqshunoslarining bevosita amaliy yordami bilan 6642 ta fermer xo'jaliklarining tayyorlov, mahsulot yetkazib beruvchi va xizmat ko'rsatish tashkilotlaridan haqlarini undirib berish bo'yicha 675025 mln. so'mlik sudlarga da'vo arizalari kiritilgan. Shundan 5615 tasi qanoatlantirilib 486213 mln.so'mini undirish bo'yicha sudlarning qarorlari qabul qilindi, 3959 ta ijro varaqa orqali 434800 mln. so'm mablag' fermer xo'jaliklariga undirib berilgan.

Shuningdek, 13092 ta fermer xo'jaliklarining haqlarini undirib berish bo'yicha qarzdor tashkilot va korxonalarga 2020869 mln. so'mlik talabnomalar kiritilgan, shundan 8149 tasi qanoatlantirilib 1653546 mln.so'mi fermer xo'jaliklari hisobiga ixtiyoriy tarzda undirib berilgan.

Fermer xo'jaliklarining 5065 ta boshqa masalalardagi murojaatlari hal etilgan va murojaatlar bo'yicha 1487655 mln.so'm undirib berilgan.

Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari manfaatini himoya qilish uchun sudlarga Qoraqalpog'iston Respublikasi 562 ta, Andijon viloyati 711 ta, Buxoro viloyati 415 ta, Jizzax 578 ta, Qashqadaryo 1252 ta, Navoiy viloyati 173 ta, Namangan viloyati 340 ta, Samarqand 579 ta, Sirdaryo 193 ta, Surxondaryo 1005 ta, Toshkent viloyati 249 ta, Farg'ona viloyati 405 ta, Xorazm viloyati 180 ta da'vo ariza kiritilib ularning huquqini ishonchli himoya qilingan.

4. 2023-yilda fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari manfaatini himoya qilish uchun sudlarga qariyb 10006 ta da'vo ariza va sudgacha bo'lgan davrda 18245 ta talabnomalar kiritilgan.

Fermer xo'jaliklarining tayyorlov, mahsulot yetkazib beruvchi va xizmat ko'rsatish tashkilotlaridan haqlarini undirib berish bo'yicha sudlarga 2144935 mln. so'mlik 10006 ta da'vo arizalari kiritilgan. Shundan 7901 tasi qanoatlantirilib 1847519 mln.so'mni undirish bo'yicha sudlarning qarorlari qabul qilingan, 4499 ta ijro varaqa orqali 986804 mln. so'm mablag' fermer xo'jaliklariga undirib berilgan.

Shuningdek, 13755 ta fermer xo'jaliklarining haqlarini undirib berish bo'yicha qarzdor tashkilot va korxonalarga 3443687 mln. so'mlik talabnomalar kiritilgan, shundan 8887 tasi qanoatlantirilib 1733437 mln.so'mi fermer xo'jaliklari hisobiga ixtiyoriy tarzda undirib berilgan.

Bundan tashqari, fermer xo'jaliklarining 3079 ta boshqa masalalardagi murojaatlari bo'yicha 303676 mln.so'm undirib berilgan.

5. 2024-yilda fermer xo'jaliklarining tayyorlov, mahsulot yetkazib beruvchi va xizmat ko'rsatish tashkilotlaridan haqlarini undirib berish bo'yicha 1850061 mln. so'mlik sudlarga qariyb 11300 ta da'vo arizalari kiritilgan. Shundan 8462 tasi qanoatlantirilib 1373491 mln. so'mini undirish bo'yicha sudlarning qarorlari qabul qilingan, 4510 ta ijro varaqa orqali 866975 mln. so'm mablag' fermer xo'jaliklariga undirib berilgan.

Shuningdek, 25353 ta fermer xo‘jaliklarining haqlarini undirib berish bo‘yicha qarzidor tashkilot va korxonalarga 4101899 mln. so‘mlik talabnomalar kiritilgan, shundan 13913 tasi qanoatlantirilib 2418658 mln.so‘mi fermer xo‘jaliklari hisobiga ixtiyoriy tarzda undirib berilgan.

Bundan tashqari, fermer xo‘jaliklarining 1646 ta boshqa masalalardagi murojaatlari bo‘yicha 961403 mln.so‘m undirib berildi.

6. 2025-yilda fermer xo‘jaliklarining tayyorlov, mahsulot yetkazib beruvchi va xizmat ko‘rsatish tashkilotlaridan haqlarini undirib berish bo‘yicha 1304234 mln. so‘mlik 5851 ta da‘vo arizalari sudlarga kiritilgan. Shundan 4512 tasi qanoatlantirilib 664074 mln. so‘mni undirish bo‘yicha sudlarning qarorlari qabul qilingan, 2723 ta ijro varaqa orqali 434339 mln. so‘m mablag‘ fermer xo‘jaliklariga undirib berilgan.

Shuningdek, 16084 ta fermer xo‘jaliklarining haqlarini undirib berish bo‘yicha qarzidor paxta to‘qimachilik klasterlari, tayyorlov, mahsulot yetkazib beruvchi, xizmat ko‘rsatuvchi va boshqa tashkilot, korxonalarga 2.455.542 mln. so‘mlik talabnomalar kiritilgan, shundan 8323 tasi qanoatlantirilib 1050135 mln. so‘mi fermer xo‘jaliklari hisobiga ixtiyoriy tarzda undirib berilgan.

Bundan tashqari, fermer xo‘jaliklarining 678 ta boshqa masalalardagi murojaatlari bo‘yicha 29397 mln. so‘m undirib berilgan.

7. 2025-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 25-dekabrda “Paxtachilik va g‘allachilikda hosildorlikni oshirishning qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 827-sonli qarori 13-bandi ijrosini ta‘minlashda ya‘ni Kengashlar tomonidan fermer, dehqon xo‘jaliklari va qishloq xo‘jaligi kooperativlari haq-huquqlarini manfaatlarini ko‘zlab sudlarga 1530 ta 335362 mln. so‘mlik da‘vo arizalari kiritilgan.

8. O‘zbekiston fermerlari kengashi va uning hududiy va tuman kengashlari tomonidan joriy yilning o‘tgan davrida (*yarim yillik*) fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari huquqlari va qonuniy manfaatlarini, shu jumladan davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, tayyorlov, ta‘minot va xizmat ko‘rsatish tashkilotlari bilan munosabatlarda, nazorat qiluvchi organlar tomonidan tekshirishlar o‘tkazish jarayonida hamda sudlarda ishlarni ko‘rib chiqishda himoya qilish borasida 2026-yil 30-iyun holatiga fermer, dehqon xo‘jaliklari manfaatini himoya qilish uchun sudlarga qariyb 510740 mln. so‘mlik 2717 ta da‘vo ariza va sudgacha bo‘lgan davrda 6177 ta talabnomalar kiritildi. Shundan 1947 tasi qanoatlantirilib 361557 mln. so‘mini undirish bo‘yicha sudlarning qarorlari qabul qilindi, 81 ta ijro varaqa orqali 154379 mln. so‘m mablag‘ fermer xo‘jaliklariga undirib berildi.

Shuningdek, 6177 ta fermer xo‘jaliklarining haqlarini undirib berish bo‘yicha qarzidor paxta to‘qimachilik klasterlari, tayyorlov, mahsulot yetkazib beruvchi, xizmat ko‘rsatuvchi va boshqa tashkilot, korxonalarga 1129047 mln. so‘mlik talabnomalar kiritilgan, shundan 4334 tasi qanoatlantirilib 863565 mln.so‘mi fermer xo‘jaliklari hisobiga ixtiyoriy tarzda undirib berildi.

Bundan tashqari, fermer xo‘jaliklarining 456 ta boshqa masalalardagi murojaatlari bo‘yicha 13442 mln.so‘m undirib berildi.

1. TARTIBGA SOLISH USULINING IJOBIY VA SALBIY OQIBATLARI

I.Tartibga solish usulining iqtisodiy sohaga ta‘siri.

Ijobiy ta‘sirlar:

1. Tadbirkorlik erkinligi va mustaqil boshqaruv. Fermer xo‘jaligining ishlab chiqarish faoliyatini, ixtisoslashuvini va ekinlarni joylashtirishni mustaqil belgilash huquqi ma‘muriy buyruqbozlikni kamaytiradi. Natijada, bozordagi talab va taklifdan kelib chiqqan holda ekin turlarini tanlash hamda resurslarni bozor talabiga moslashtirish orqali qishloq xo‘jaligi samaradorligini oshiradi.

2. Erkin baho belgilash mexanizmi. Fermerlar tomonidan yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsuloti, amalga oshirilgan ish va xizmatlarga erkin narx belgilash huquqi baholarning bozordagi talab-taklif asosida shakllanishiga yo‘l ochadi, bu esa o‘z navbatida sog‘lom raqobat muhitini rivojlantiradi va fermerlarning daromadini bozor sharoitiga bog‘liq holda oshiradi.

3. Cheklanmagan daromad — investitsiya va mehnat rag‘bati. Daromadning cheklanmaganligi fermer xo‘jaliklarini faqatgina mahsulot yetishtirish emas balki qayta ishlash orqali ko‘proq ishlab chiqarish va texnologiyalarni yaxshilashga undaydi, natijada qishloq xo‘jaligiga xususiy investitsiyalar oqimi ko‘payadi va qo‘shilgan qiymat zanjiri shakllanadi. Bu esa o‘z navbatida fermerning samaradorligini oshirib boraveradi.

4. Moliyaviy resurslarga kirish imkoniyati. Fermerlarning kredit olish, yer ijarasi huquqini garovga qo‘yish va boshqa shaxslar mablag‘larini jalb etish huquqi fermer xo‘jaliklarining bank tizimi va investorlar bilan aloqasini kengaytiradi, yangi imkoniyatlarni vujudga kelishiga erishiladi, aylanma va asosiy vositalarga bo‘lgan ehtiyojni qoplashga yordam beradi. Natijada fermer xo‘jaliklarini iqtisodiy-moliyaviy munosabatlarida mustaqil qaror qabul qilish va tanlov imkoniyatlari mustahkamlanadi.

5. Fyuchers shartnomalari orqali xatarlarni boshqarish. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirib berish uchun oldindan haq to‘lanadigan fyuchers kontraktlarini fermerlarning ixtiyoriy tanlov asosida tuzish huquqi mahsulot narxi va sotish xavflarini oldindan bartaraf etish, moliyaviy rejalashtirishni osonlashtirish va fermer daromadining barqarorligini ta‘minlashga kafolatlarini vujudga keltiradi. Bu esa o‘z navbatida fermerga ishonchli hamkorlikni ta‘minlaydi.

6. Xaridorlarni erkin tanlash orqali raqobatni rag‘batlantirish. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalar va mahsulot iste‘molchilarini fermerlar tomonidan mustaqil tanlash huquqi xaridorlar o‘rtasidagi sog‘lom raqobatni kuchaytiradi va bozorda yakka hukmronlik (monopoliya) xavfini qisman kamaytiradi, natijada fermerga nisbatan adolatli narx va jozibador takliflarni shakllanib borishiga muhit yaratiladi.

7. Kichik biznes imtiyozlaridan foydalanish. Fermerlar tomonidan kichik va xususiy tadbirkorlik uchun belgilangan soliq, bojxona, bank kreditlari, subsidiyalar va boshqa imtiyozlardan foydalanish huquqi fermer xo‘jaliklarining moliyaviy yukini kamaytiradi. Natijada, fermer tomonidan yetishtirilayotgan yoki qayta ishlanayotgan mahsulotlarning tannarxi pasayishiga olib kelib ularning raqobatbardoshligini oshiradi hamda narxlar barqarorligiga ijobiy ta‘sirini ko‘rsatadi.

8. Innovatsiya va ilm-fan bilan aloqa. Fermerlar xo‘jaliklarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va ilm-ta‘lim muassasalari bilan hamkorlik qilish huquqi agrotexnologik taraqqiyotni rag‘batlantiradi, ayniqsa resurstejamkor texnologiyalar va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etilishi agrotexnik tadbirlarining amalga oshirilishini kam sarf-xarajatlariga olib keladi, mahsulot tannarxi pasayadi va fermerlarning to‘lov qobiliyatini oshirib moliyaviy barqarorligi mustahkamlanib borishiga erishiladi.

9. Yer ijarasi huquqining aylanmaga kiritilishi. Fermerlar tomonidan yer ijara huquqini boshqa shaxsga o‘tkazish (qayta ijaraga berish) hamda dala chetidagi maydonlarni ikkilamchi ijaraga berish imkoniyati yer resurslaridan to‘liqroq foydalanishni ta‘minlaydi va natijada yerdan foydalanish samaradorligi oshirilishi bilan birga yerdan foydalanish madaniyatini oshirib borilishiga olib keladi.

Ehtimoliy salbiy ta‘sirlar va xatarlar:

1. Erkin narx belgilash huquqining amalda cheklanganligi. Ayrim strategik ekinlar (masalan, paxta, g‘alla) bo‘yicha davlat buyurtmasi va kontraktatsiya tizimi elementlari saqlanib qolishi mumkinligi normativ jihatdan e‘lon qilingan "erkin narx belgilash" huquqi bilan amaliyotda ziddiyatga olib kelishi mumkin.

2. Ikkilamchi ijara huquqining tor doirasi. Yer uchastkasini faqat oraliq ekin uchun va uchinchi shaxslarga o‘tkazish huquqsiz ikkilamchi ijaraga berish imkoniyati investorlar uchun jozibadorlikni pasaytiradi hamda yer uchastkalaridan samaraliroq foydalanishni (masalan, ixtisoslashgan xizmat ko‘rsatuvchi subyektlar jalb etishni) cheklaydi.

3. Infratuzilma xizmatlarida monopol ta‘minotchilarga bog‘liqlik. Elektr energiyasi, suv xo‘jaligi va boshqa xizmatlar bo‘yicha shartnoma tuzish huquqi rasman kafolatlangan bo‘lsa-da,

amalda bu sohalarida tabiiy monopoliyalar ustunlik qilgani sababli fermerning "erkin tanlov" huquqi cheklangan tarzda amalga oshadi.

4. Mayda xo'jaliklarning moliyaviy va bozor imkoniyatlari cheklanganligi. Norma barcha fermer xo'jaliklariga formal jihatdan teng huquq bersa-da, amalda mayda va o'rtacha fermer xo'jaliklari kredit olish, eksport va yirik shartnomalar tuzishda yirik agroklastlar bilan raqobatlasha olmaydi.

5. Jamoaviy himoya mexanizmlarining yetarli emasligi. Ushbu norma fermer xo'jaligining individual huquqlariga asoslangan, xaridorlar yoki yetkazib beruvchilar bilan muzokarada kollektiv (uyushma darajasidagi) baholashish kuchini kuchaytiruvchi aniq iqtisodiy vositalar nazarda tutilmagan, bu fermerlarning savdo shartnomalaridagi muzokara mavqeini pasaytiradi.

Takliflar:

1. Yer ijarasi huquqini to'laqonli garov predmetiga aylantirish. Yer ijarasi huquqining bozor qiymatini baholash va uni garovga qo'yish tartibini soddalashtirish, shuningdek banklar uchun ushbu garov turini qabul qilish bo'yicha normativ kafolatlarni kuchaytirish tavsiya etiladi.

2. Fermer uyushmalari va kooperativlarining iqtisodiy vakolatlarini kengaytirish. 16-moddaga fermer xo'jaliklari uyushmalarining mahsulot sotish va xom ashyo xarid qilishda kollektiv muzokara yuritish huquqini mustahkamlovchi norma kiritish xaridorlar bilan muzokara mavqeini tenglashtirishga xizmat qiladi.

3. Erkin narx belgilash huquqi bilan davlat buyurtmasi tizimi o'rtasidagi ziddiyatni bartaraf etish. Strategik ekinlar bo'yicha davlat tomonidan belgilanadigan shartlar mavjud bo'lgan taqdirda, bunday istisnolarni aniq va ochiq tarzda qonunda ko'rsatish normaning ijrosini shaffoflashtiradi.

4. Ikkilamchi ijara doirasini kengaytirish. Yer uchastkasini nafaqat oraliq ekin, balki boshqa maqbul iqtisodiy faoliyat turlari uchun ham muddatli ikkilamchi ijaraga berish imkoniyatini kengaytirish yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshiradi.

5. Infratuzilma xizmatlari bozorida raqobatni rivojlantirish. Suv xo'jaligi, energetika va boshqa xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar faoliyatida muqobil (xususi) xizmat ko'rsatuvchilarni jalb etish orqali fermerning erkin tanlov huquqini amalda ta'minlash choralari ko'rilishi lozim.

6. Kichik fermer xo'jaliklari uchun moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish. Garovsiz yoki yengillashtirilgan garov shartlari asosidagi mikrokreditlash dasturlarini kengaytirish mayda fermer xo'jaliklarining moliyaviy resurslarga teng kirishini ta'minlaydi.

II. TARTIBGA SOLISH USULINING RAQOBAT MUHITIGA TA'SIRI

O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 26-avgustdagi **"Fermer xo'jaligi to'g'risida"** 662-II-son Qonunining 16-moddasi: *"Fermer xo'jaligining huquqlari"* normasi fermer xo'jaligining tadbirkorlik faoliyatidagi huquqlarini belgilaydi va bu huquqlar qishloq xo'jaligi mahsulotlari, xizmatlari hamda resurslari bozorida raqobat muhitining shakllanishiga bevosita aloqadordir.

Modda tarkibidagi xaridor va yetkazib beruvchini erkin tanlash, narx belgilash, shartnoma tuzish va mol-mulkni tasarruf etish kabi huquqlar — raqobat muhitining asosiy sharti bo'lgan "iqtisodiy erkinlik" tamoyilini amalga oshiruvchi vositalardir. Shu bois 16-moddaning raqobat muhitiga bevosita aloqadorligi quyidagi huquqlarni belgilaydi:

- mahsulotni qayta ishlovchi korxonalarni va iste'molchilarni mustaqil tanlash;
- yetishtirilgan mahsulotga va ko'rsatilayotgan xizmatlarga narx belgilash;
- elektr energiyasi, yoqilg'i-moylash materiallari, o'g'it, o'simliklarni himoya qilish vositalari, suv xo'jaligi va texnik xizmatlar bo'yicha ixtiyoriy shartnoma tuzish;
- oldindan haq to'lanadigan fyuchers kontraktlari tuzish;
- tadbirkorlikdan cheklanmagan miqdorda daromad olish;
- kredit olish, yer ijarasi huquqini garovga qo'yish, investitsiya mablag'larini jalb etish;
- kichik biznes uchun imtiyoz va preferensiyalardan foydalanish;
- yer ijarasi huquqini boshqa shaxsga (qayta ijaraga) o'tkazish;

- huquqlarini sud orqali himoya qilish.

Ushbu huquqlarni amalga oshirish jarayonida raqobat muhitga o'zining ijobiy va salbiy ta'sir o'tkazishi ehtimoli va xatarlarni ham inobatga olinishi hamda ularni boshqarish orqali tartibga solish maqsadga muvofiqdir.

Ijobiy ta'sir:

1. Xaridorni erkin tanlash orqali sotib oluvchilar o'rtasida raqobatni rag'batlantirish. Fermer o'zi yetishtirgan mahsulotlarni sotish maqsadida qayta ishlovchi korxona va iste'molchilarni mustaqil tanlash huquqi xaridorlarni fermer mahsulotini qo'lga kiritish uchun o'zaro raqobatlashishga undaydi, bu esa bozorda yakka hukmron xaridor (monopoliya) ta'sirini qisman cheklaydi va natijada sog'lom raqobat muhiti vujudga keladi. Natijada fermer o'zi uchun manfaatli va jozibali shartlar asosida yetishtirgan mahsulotini sotish imkoniyatiga ega bo'ladi.

2. Erkin narx belgilash — baho raqobatining asosi. Fermerga o'zi yetishtirgan mahsulot, ish va xizmatlarga erkin narx belgilash huquqi ma'muriy baho belgilashdan voz kechishni anglatadi va bozor ishtirokchilari o'rtasida talab va taklif bahosi orqali raqobatlashish imkoni yaratiladi.

Bu esa o'z navbatida sog'lom raqobatni keltirib chiqaradi.

3. Yetkazib beruvchilarni tanlash huquqi — resurs bozorida raqobatni kuchaytiradi. Elektr energiyasi, yoqilg'i-moylash materiallari, o'g'it va boshqa xizmatlar bo'yicha shartnoma tuzishda erkinlik fermerga turli yetkazib beruvchilar orasidan o'ziga eng qulay yetkazib berish shartlari asosida shartnomalar tuzish imkonini beradi, bu esa ushbu bozorlarda taklif etuvchilar o'rtasida raqobatni rag'batlantiradi.

4. Fyuchers kontraktlari — shaffof va raqobatbardosh savdo muhitini shakllantiradi. Oldindan haq to'lanadigan kontraktlar tuzish huquqi fermerlarga bir nechta xaridor takliflarini qiyoslash va eng qulay shartnomani tanlash imkonini beradi, bu narx shaffofligini oshiradi.

Bundan tashqari fyuchers kontraktlari asosida amalga oshirilgan oldindan avans to'lovlari mahsulot yetishtirishda aylanma mablag'larni to'ldirishga xizmat qilib bank kreditlari va boshqa moliyaviy yuklamalardan ozod qiladi.

5. Cheklanmagan daromad — samaradorlik uchun raqobatni rag'batlantiradi. Fermerlar uchun daromadning cheklanmaganlik huquqi fermer xo'jaliklarini xarajatlarni kamaytirish va hosildorlikni oshirishga, ya'ni o'zaro samaradorlik raqobatiga kirishishga undaydi. Natijada fermer xo'jaliklari o'z aktivlarini oshirib borib moliyaviy barqarorligini kuchaytirishga erishib boraveradi. Bu esa kelajak istiqbolda fermerning kredit to'lov qobiliyatini oshishiga, aylanma mablag'larining ko'payib borishiga olib keladi.

6. Moliyaviy resurslarga teng kirish imkoniyati — bozorga kirish to'siqlarini kamaytiradi. Fermerlarning o'z tashabbusi bilan kredit olish, investitsiyalarni jalb qilish huquqi yangi va kichik fermer xo'jaliklarining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytiradi, bu ularning bozorda raqobatbardosh bo'lib qolishiga ko'maklashadi.

Bundan tashqari, fermer o'zining imkoniyatlaridan kelib chiqib xorijiy investitsiyalarni jalb etish, innovatsion texnologiyalarni joriy qilish, chet el eksport bozorlariga mahsulotini yetkazib berishni mustaqil amalga oshirish huquqi fermer xo'jaligi moliyaviy-xo'jalik faoliyatini mustaqilligini ta'minlaydi va ma'muriy aralashuvlarni cheklashga olib keladi.

7. Kichik biznes imtiyozlari — teng raqobat maydonini shakllantiradi. Fermer xo'jaliklariga ham kichik va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun belgilangan imtiyozlardan foydalanish huquqi mayda fermer xo'jaliklarining yirik agrokorxonalar bilan raqobatlashish imkoniyatini oshiradi. Bozorda yirik va kichik fermer xo'jaliklari teng huquqlik asosida faoliyat olib boradi va kichik fermer xo'jaliklariga ham faoliyatini yiriklashtirishga imkoniyat tug'iladi.

8. Sudda himoyalani huquqi — bozor qoidalarining barcha ishtirokchilar uchun bir xil qo'llanilishini ta'minlaydi. Huquq va manfaatlarni sud orqali himoya qilish imkoniyati shartnomaviy nizolarda fermerning yirik kontragentlar oldida huquqiy teng mavqeda bo'lishini ta'minlab, raqobat muhitining adolatlilikini oshiradi.

Ehtimoliy salbiy ta'sirlar va xatarlar:

1. Infratuzilma xizmatlari bozorida monopoliya saqlanib qolishi. Elektr energiyasi va suv xo'jaligi xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilotlar ko'pincha tabiiy monopoliya maqomiga ega bo'lgani sababli, fermerning "erkin tanlash" huquqi amalda cheklangan — muqobil yetkazib beruvchi mavjud emas, bu raqobatni shakllantirmaydi. Natijada, fermer xo'jaliklariga o'z agrotexnik tadbirlarni amalga oshirishda infratuzilma xizmatlarini amalga oshiruvchi ta'minotchilarga qaramlikni vujudga keltiradi.

2. Ko'p tarmoqli va oddiy fermer xo'jaliklari o'rtasidagi nomutanosiblik. Ko'p tarmoqli fermer xo'jaligi qayta ishlash, sanoat ishlab chiqarishi va xizmat ko'rsatish kabi qo'shimcha faoliyat turlari bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'lgani holda, oddiy (bir tarmoqli) fermer xo'jaligi faqat birlamchi ishlab chiqarish bilan cheklanib qolsa, bu quyi bozor segmentlarida (qayta ishlash, sotish) ular o'rtasida raqobat notengligini keltirib chiqarish ehtimoli bor.

3. Strategik ekinlar bo'yicha davlat ta'sirining saqlanishi. Ayrim qishloq xo'jaligi ekinlari (masalan, paxta, g'alla) bo'yicha davlat buyurtmasi yoki kontraktatsiya elementlari saqlanib qolishi erkin narx belgilash va xaridorni tanlash huquqlarining to'liq raqobat muhitini shakllantirishiga to'sqinlik qilishi mumkin.

Raqobatni kuchaytirish bo'yicha takliflar:

1. Infratuzilma xizmatlari bozorida muqobil xizmat ko'rsatuvchilarni rivojlantirish. Suv xo'jaligi va boshqa xizmat turlarida xususiy va nodavlat xizmat ko'rsatuvchi subyektlarni jalb etish mexanizmlarini joriy etish fermerning "erkin tanlash" huquqini amaliy mazmun bilan to'ldiradi.

Shuningdek, fermerlar tomonidan muqobil elektr energiya manbaini joriy qilinganligi uchun davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash (subsidiyalar, ssudalar, imtiyozli kreditlar va x.k) mexanizmlarini jadallashtirish bo'yicha dasturlar ishlab chiqish.

3. Kichik va bir tarmoqli fermer xo'jaliklari uchun faoliyat doirasini kengaytirish. Oddiy fermer xo'jaliklariga ham, ma'lum shartlar asosida, o'z mahsulotini qayta ishlash va bevosita sotish kabi qo'shimcha faoliyat turlari bilan shug'ullanish imkoniyatini berish ko'p tarmoqli xo'jaliklar bilan raqobat notengligini kamaytiradi.

4. Fermer uyushmalarining kollektiv muzokara vakolatini kuchaytirish. Uyushmalarga yirik xaridorlar va yetkazib beruvchilar bilan kollektiv shartnoma tuzish huquqini aniq belgilash, bunda alohida fermerning mustaqil ravishda boshqa shartnoma tuzish huquqini saqlagan holda, kichik xo'jaliklarning muzokara mavqeini oshiradi.

III. ATROF-MUHITGA TA'SIRI

O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 26-avgustdagi "Fermer xo'jaligi to'g'risida" 662-II-son Qonunining 16-moddasi: "Fermer xo'jaligining huquqlari" normasi fermer xo'jaligining tadbirkorlik faoliyatidagi huquqlarini — jumladan, yer uchastkasidan foydalanish, ekinlarni joylashtirish, o'g'it va o'simliklarni himoya qilish vositalarini sotib olish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish kabi huquqlarni belgilaydi.

Ushbu huquqlarning katta qismi bevosita yer, suv va biologik resurslardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgani sababli, ushbu norma me'yorlari tabiiy ravishda atrof muhit holatiga ham ta'sir ko'rsatadi. Norma o'zi ekologik talablarni bevosita belgilamaydi, biroq fermerga berilayotgan iqtisodiy erkinlik darajasi atrof muhitga nisbatan amaliyotda qanday tatbiq etilishi muhim ahamiyatga ega bo'lib u qo'yidagi asosiy huquqlarni belgilaydi:

- fermer xo'jaligi Nizomidagi ixtisoslashuvga muvofiq ishlab chiqarishni va ekinlarni joylashtirishni mustaqil belgilash;
- yer uchastkasini oraliq ekin uchun ikkilamchi ijaraga berish;
- mineral o'g'itlar, o'simliklarni himoya qilishning kimyoviy va biologik vositalari yetkazib berilishi uchun shartnomalar tuzish;
- zarur asbob-uskunalar olish, binolar va inshootlar qurish hamda ularni ta'mirlash;
- ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalarni, fan va texnika yutuqlarini joriy etish;
- fan-ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qilish;

- tadbirkorlikdan cheklanmagan miqdorda daromad olish va uni erkin tasarruf etish;
- kredit olish va investitsiya mablag'larini jalb etish;
- yer ijarasi huquqini shartnoma muddatiga boshqa shaxsga o'tkazish (qayta ijaraga berish).

Shu bilan birga, ushbu huquqlarni amalga oshirish jarayonida atrof muhitga o'zining ijobiy va salbiy ta'sir o'tkazishi ehtimoli va xatarlarni ham inobatga olinishi hamda ularni boshqarish muhim ahamiyatga ega.

Ijobiy ta'sir:

1. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish huquqi — resurstejamkor agrotexnologiyalardan foydalanishga yo'lini ochadi. Fermer xo'jaligining ilg'or texnologiyalarni (tomchilatib sug'orish, lazerli tekislash, aniq dehqonchilik tizimlari) mustaqil joriy etish huquqi suv va boshqa tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni rag'batlantiradi, bu esa tuproq va suv resurslarini saqlashga xizmat qiladi.

2. Fan-ta'lim muassasalari bilan hamkorlik — ekologik innovatsiyalarni jadallashtiradi. Ilmiy muassasalar bilan hamkorlik qilish huquqi iqlimga chidamli navlar, organik dehqonchilik usullari va zararkunandalarga qarshi biologik vositalarni joriy etishni osonlashtiradi, natijada kimyoviy vositalarga bog'liqlik kamayishi mumkin.

3. Ekinlarni mustaqil joylashtirish — agroekologik moslashuvga imkon beradi. Ixtisoslashuvni va ekin turlarini mustaqil belgilash huquqi fermerga mahalliy tuproq-iqlim sharoitiga mos, suvni kamroq talab qiladigan yoki tuproq strukturasini saqlashga xizmat qiladigan ekinlarni tanlash imkonini beradi.

4. Cheklanmagan daromad va erkin investitsiya — ekologik modernizatsiyaga mablag' jalb etadi. Daromadni erkin tasarruf etish va kredit olish huquqi fermer xo'jaligiga energiya tejamkor uskunalar, yomg'irlatib yoki tomchilatib sug'orish tizimlari, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini (masalan, quyosh panellari) sotib olish uchun moliyaviy asos yaratadi.

5. Ikkilamchi ijara — bo'sh turgan yer maydonlaridan oqilona foydalanishni ta'minlaydi. Dala chetlaridagi va kanal atrofidagi maydonlarni oraliq ekin uchun ikkilamchi ijaraga berish huquqi bunday yerlarning samarasiz (begona o't bilan qoplangan yoki eroziyaga uchragan) holda qolib ketishining oldini oladi.

6. Yer ijarasi huquqini boshqa shaxsga o'tkazish — samarasiz foydalanilayotgan yerlarni ekologik jihatdan mas'uliyatli fermerlar qo'lga o'tkazish imkonini beradi. Ijara huquqini qayta topshirish imkoniyati tuproq unumdorligini saqlash borasida ko'proq tajriba va resursga ega bo'lgan xo'jaliklarning yer uchastkasini qo'lga kiritishiga yo'l ochadi.

Ehtimoliy salbiy ta'sirlar va xavflar:

1. Kimyoviy vositalarni erkin sotib olish huquqi atrof muhitga bosimni oshiruvchi omil bo'lishi mumkin. Mineral o'g'it hamda o'simliklarni himoya qilishning kimyoviy vositalarini yetkazib berish bo'yicha shartnoma tuzish huquqi ushbu vositalardan me'yoridan ortiq yoki noto'g'ri foydalanishni cheklovchi aniq mexanizm bilan birga kelmaydi — bu tuproq, suv va bioxilma-xillikka salbiy ta'sir xavfini saqlab qolish ehtimoli bor.

2. Ijara (egallik emas) huquqi uzoq muddatli tuproq parvarishiga rag'batni pasaytirishi mumkin. Fermer xo'jaligi yer uchastkasiga mulk huquqiga emas, balki muddatli ijara huquqiga ega bo'lgani sababli, ayrim hollarda qisqa muddatli daromadga yo'naltirilgan intensiv foydalanish tuproq unumdorligini uzoq muddatli saqlashga nisbatan ustuvor bo'lishi mumkin.

3. Cheklanmagan daromad olish huquqi intensiv monokultura xavfini kuchaytirishi mumkin. Iqtisodiy foyda mezonining ustuvorligi ba'zan ekin almashlab ekish (sevooborot) va tuproqni tiklash tadbirlarini chetlab o'tgan holda, bir xil yuqori rentabelli ekinni uzluksiz yetishtirishga (monokulturaga) olib kelishi, natijada tuproq strukturasini va unumdorligini pasayishi mumkin.

4. Qurilish va uskunalar olish huquqi atrof muhitga ta'sirni baholash talabisiz amalga oshirilishi mumkin. Binolar va inshootlar qurish, zarur asbob-uskunalar olish huquqi 16-moddada ekologik ekspertiza yoki atrof muhitga ta'sirni baholash talabi bilan uzviy

bog'lanmagan, bu qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarda tartibsiz qurilish xavfini tug'dirishi mumkin.

5. Yer ijarasi huquqini qayta topshirish ekologik mas'uliyatning uzilishiga olib kelishi mumkin. Ijara huquqi boshqa shaxsga o'tkazilganda, avvalgi ijarachi tomonidan boshlangan tuproq tiklash yoki meliorativ tadbirlarning davomiyligi va yangi ijarachining bu boradagi mas'uliyati aniq mustahkamlanmagan.

Atrof-muhitga ta'sirini yaxshilash bo'yicha takliflar.

2. Kimyoviy vositalardan foydalanishni rag'batlantiruvchi va cheklovchi mutanosib mexanizm kiritish. O'g'it va o'simliklarni himoya qilish vositalari bo'yicha shartnoma tuzish huquqini ekologik xavfsiz (sertifikatlangan, biologik) vositalarni afzal ko'ruvchi norma bilan to'ldirish maqsadga muvofiq.

3. Yer ijarasi huquqini qayta topshirishda ekologik majburiyatlar davomiyligini mustahkamlash. Ijara huquqi boshqa shaxsga o'tkazilganda, yer uchastkasining meliorativ holati va tuproq unumdorligini saqlash bo'yicha oldingi majburiyatlarning yangi ijarachiga ham taalluqli ekanligini qonunda aniq ko'rsatish lozim.

4. Ekin almashlab ekish tamoyilini rag'batlantiruvchi norma kiritish. Ekinlarni mustaqil joylashtirish huquqini saqlagan holda, tuproq unumdorligini uzoq muddatli saqlash maqsadida ilmiy asoslangan ekin almashlab ekish tavsiyalariga rioya etishni rag'batlantiruvchi (masalan, soliq imtiyozlari orqali) qo'shimcha norma ishlab chiqish mumkin.

5. Qurilish va texnik modernizatsiya uchun soddalashtirilgan ekologik nazorat joriy etish. Binolar va inshootlar qurish huquqini amalga oshirishda, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning maqsadli foydalanishini saqlash yuzasidan yengillashtirilgan, ammo majburiy ekologik nazorat tartibini belgilash tavsiya etiladi.

6. "Yashil" texnologiyalarni joriy etishni ustuvor yo'nalish sifatida mustahkamlash. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish huquqi ta'rifiga resurs tejamkor va atrof muhitga zarar yetkazmaydigan texnologiyalarni ustuvor joriy etish tamoyilini qo'shish normaning ekologik yo'nalganligini kuchaytiradi.

7. Atrof muhit holatini muntazam monitoring qilish tizimini joriy etish. Qishloq xo'jaligi vazirligi va ekologiya idoralari hamkorligida fermer xo'jaliklari tomonidan ushbu norma doirasidagi huquqlardan foydalanish natijasida tuproq, suv va bioxilma-xillikka ta'sirni davriy baholash hamda natijalarni oshkora e'lon qilish tizimini yaratish tavsiya etiladi.

8. TARTIBGA SOLISH USULINING SAMARADORLIGI (IQTISODIY TAHLILI)

2020-2025-yillar davomida O'zbekiston fermerlar kengashining bevosita yordami bilan fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari manfaatini himoya qilish uchun quyidagi ishlar amalga oshirilgan:

1. Sud organlariga 45820 ta qiymati 7 003 139 mln.so'mlik da'vo arizalari kiritilgan, shundan , 35900 ta arizalar qanoatlantirilib qiymati 5 050 808 mln. so'mga teng mablag'larni undirish bo'yicha sudlarning qarorlari qabul qilingan va 22431 ta ijro varaqalari orqali 3 277 377 mln.so'm mablag'lar undirib berilgan.

2. Fermer xo'jaliklarining haqlarini undirib berish bo'yicha qarzdor tashkilot va korxonalarga qiymati 13 261 750 mln. so'mga teng 94037 ta talabnomalar kiritilib 62670 ta talabnoma asosida 7 237 106 mln.so'm mablag'lar fermer xo'jaliklari hisobiga ixtiyoriy tarzda undirib berilgan.

3. Fermer xo'jaliklarining boshqa masalalardagi 19189 ta murojaatlari hal etilib 2 965 030 mln.so'm mablag'lar undirib berilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakilining ma'lumotiga ko'ra 2024-2025-yillar davomida fermer xo'jaliklardan 1583 ta murojaatlar kelib tushgan bo'lib shundan 1084 ta murojaat ko'rib chiqilgan bo'lib 515 ta murojaat ijobiy hal etilgan. Shu bilan birga 569 ta murojaat bo'yicha tushuntirish berilgan, 13 ta murojaat ko'rib chiqishi tugatilgan,

248 ta murojaat tegishliligi bo'yicha davlat organlariga yuborilgan va 238 ta murojaat bo'yicha O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 30-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil to'g'risida" O'RQ-440-son Qonuni 12-moddasi (Tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha vakilning tadbirkorlik subyektlarining shikoyatlarini va boshqa murojaatlarini ko'rib chiqish tartibi)ga muvofiq javob berilgan.

4. XULOSA

O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 26-avgustdagi "**Fermer xo'jaligi to'g'risida**" 662-II-son Qonunining 16-moddasi (*Fermer xo'jaligining huquqlari*) normasi xalqaro tajribaga mos keluvchi, fermer xo'jaligiga keng huquqiy erkinlik beruvchi zamonaviy tuzilmaga ega.

Mustaqil xo'jalik yuritish, mulkiy tasarruf, garov, ikkilamchi ijaraga, fyuçers shartnomalari, erkin realizatsiya kabi huquqlarning bir moddada mujassamlashuvi bularning barchasi qonunchilikning bozor iqtisodiyoti talablariga moslashganini ko'rsatadi.

Ushbu tahlil doirasida Qonunning 16-moddasida mustahkamlangan fermer xo'jaligining huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy huquqlarini belgilovchi norma tartibga solish ta'sirini baholash mezonlari — zarurlik, mutanosiblik, tadbirkorlik erkinligiga moslik va amaliyotda qo'llanish samaradorligi nuqtai nazaridan o'rganildi. Tahlil natijalariga ko'ra, quyidagi yakuniy xulosalarga kelindi:

- norma fermer xo'jaligiga ishlab chiqarish faoliyatini mustaqil tashkil etish, mahsulot yetishtirish yo'nalishlarini va iste'molchilarini erkin tanlash, shartnomalar tuzish, cheklanmagan miqdorda daromad olish kabi keng huquqlarni kafolatlaydi, bu tadbirkorlik erkinligi tamoyiliga to'liq mos keladi.

- norma fermer xo'jaligiga kredit olish, yer uchastkasini ijaraga olish huquqini garovga qo'yish, kichik biznes uchun belgilangan imtiyoz va preferensiyalardan foydalanish imkoniyatini beradi, bu investitsiya muhitini yaxshilashga xizmat qiladi.

- qishloq xo'jaligida band bo'lgan subyektlarning huquqiy himoyalanganligini oshiradi va fermer xo'jaliklarining barqaror faoliyat yuritishi, shuningdek oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

- yer uchastkasini ikkilamchi ijaraga berish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va fan-ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qilish kabi huquqlar fermer xo'jaliklarining raqobatbardoshligini oshiradi.

- fermer xo'jaligining xo'jalik faoliyatiga davlat organlari va mansabdor shaxslarning aralashuvini cheklaydi, bu ortiqcha ma'muriy to'siqlar va korrupsiyaviy xavflarni kamaytiradi.

- norma mazmunan takrorlanuvchi yoki bir-biriga zid qoidalarini o'z ichiga olmaydi, boshqa qonun hujjatlari bilan uyg'unlashgan holda amal qiladi.

- fermer xo'jaligining o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun sudga murojaat etish huquqi mustahkamlanganligi, huquqiy davlat tamoyillariga hamda fuqarolarning sudga murojaat qilish konstitutsiyaviy huquqiga to'liq mos keladi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi Qonunning 16-moddasi (*Fermer xo'jaligining huquqlari*) mazmunan ijobiy baholandi. Norma aniq, tushunarli va mutanosib bo'lib, fermer xo'jaliklarining tadbirkorlik erkinligini kengaytiradi, ortiqcha ma'muriy to'siqlar yaratmaydi, ijtimoiy-iqtisodiy maqsadga muvofiq hamda amaldagi qonunchilik tizimi bilan uyg'un hisoblanadi.

Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 26-avgustdagi "**Fermer xo'jaligi to'g'risida**" 662-II-son Qonunining 16-moddasi (*Fermer xo'jaligining huquqlari*) normasi amaldagi tahririda saqlab qolinishi maqsadga muvofiq.